



TARAKKIYAT TADQIQOTLARI | ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ DEVELOPMENT STUDIES

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР | НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КОНФЕРЕНЦИИ
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCES

Volume II, Issue-23, (November) 2024

Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/rid>

TOSHEVA Maftuna Anvar qizi

*Mehnat va ijtimoiy munosabatlar
Akademiyasining katta-o'qituvchisi
TDYU tayanch doktoranti*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJIY DAVLATLAR JINOYAT QONUNCHILIGIDA INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING NOQONUNIY OLINISHI VA TRANSPLANTATSIYASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLAR: QIYOSIY TAHLIL

Inson organlari va to'qimalarini noqonuniy olish, transplantatsiya qilish va ular bilan savdo qilish global muammo sifatida jiddiy e'tiborni talab qiladi. Ushbu turdagi jinoyatlar nafaqat insonning asosiy huquq va erkinliklariga tahdid soladi, balki xalqaro sog'liqni saqlash tizimiga ham katta xavf tug'diradi. O'zbekiston Respublikasi va boshqa xorijiy davlatlar inson a'zolari va to'qimalari savdosiga qarshi kurashish va transplantatsiya bilan bog'liq noqonuniy harakatlarning oldini olish uchun o'z jinoyat qonunchiligini takomillashtirishga e'tibor qaratgan.

O'zbekiston Respublikasining "Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida" Qonuni [1] asosida (23.06.2022 yildagi O'RQ-780-son) Jinoyat kodeksiga quyidagi qilmishlar: 115¹-modda. Insonni undan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash; 133-modda. Inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini olish hamda transplantatsiya qilish shartlarini va (yoki) tartibini buzish; 133¹-modda. Inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining oldi-sotdisi hamda 133²-modda. Insonning transplantatsiya qilinadigan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish inson a'zolari va to'qimalari bilan bog'liq jinoyatlar sifatida kiritildi [2].

115¹-modda. Insonni undan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash.

Jinoyat huquqiy nuqtai nazaridan, 115¹-modda harakatlarini majburlashni, ya'ni insonni transplantatsiya uchun o'zining a'zolari yoki to'qimalarini berishga rozilik berishga undashni belgilaydi. Bu majburlash biror shaklda — zo'rlash, aldanish, ta'qib qilish, shaxsning qo'rquvini kuchaytirish yoki boshqacha noqonuniy ta'sir orqali amalga oshirilishi mumkin. Asosiy vazifa, shaxsning erkin ixtiyoriy qarorini buzish va uni transplantatsiya uchun a'zolarini berishga majburlashdir.

133-modda. Inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini olish hamda transplantatsiya qilish shartlarini va (yoki) tartibini buzish.

Bu modda organ va to'qimalarni olish va transplantatsiya qilishda qonunchilikda belgilangan shartlarni yoki tartibni buzishni nazarda tutadi. Jinoyat huquqi nuqtai nazaridan, bu moddaning maqsadi inson organlarining noqonuniy olinishi va transplantatsiyasini nazorat qilishdir. Modda vafot etgan shaxsdan tirikligida rozilik olmasdan organlarni ilmiy yoki ta'lim maqsadlarida saqlash uchun olish holatlariga alohida urg'u beradi. Bunday harakatlar shaxsning tanasiga bo'lgan huquqlarining buzilishi deb baholanadi va jinoyat kodeksida keltirilgan jazolar bilan ta'minlanadi.

Inson organlari va to‘qimalarining oldi-sotdisi (133¹-modda) bilan bog‘liq jinoyatlar inson a‘zolari yoki to‘qimalarining savdo qilishini taqiqlashni nazarda tutadi. Ya‘ni mazkur predmetlar oldi-sotdi shartnomasi predmeti hisoblanishi mumkin emas. Jinoyat huquqiy jihatdan bu modda shaxsning tanasini tijorat maqsadlarida ishlatishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini ta‘minlaydi va odam savdosi va ekspluatatsiyasi kabi og‘ir jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan.

133²-modda. Insonning transplantatsiya qilinadigan a‘zolarini va (yoki) to‘qimalarini O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish.

Ushbu modda organ va to‘qimalarning O‘zbekiston Respublikasidan noqonuniy olib chiqilishini nazorat qiladi. Jinoyat huquqi nuqtai nazaridan, bu norma davlat chegarasidan tranzit jarayonlari ustidan qat‘iy nazoratni ta‘minlaydi, qonunga xilof ravishda transplantatsiya materiallarini eksport qilish bilan bog‘liq holatlarni oldini olishga yo‘naltirilgan. “Inson a‘zolari va to‘qimalarining transplantatsiyasi to‘g‘risida” to‘g‘risidagi qonunning 15-moddasiga ko‘ra, “Inson a‘zolarini va (yoki) to‘qimalarini transplantatsiya qilishda jismoniy hamda yuridik shaxslarga inson a‘zolarining va (yoki) to‘qimalarining oldi-sotdisi taqiqlanadi. Transplantatsiya qilinadigan inson a‘zolarini va (yoki) to‘qimalarini O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish taqiqlanadi [3].

Ushbu jinoyatlar ijtimoiy xavfi bilan jamiyatning muhim manfaatlarini, ya‘ni inson huquqlari, sog‘liqni saqlash tizimi va axloqiy normalarni buzadi. Inson organlari savdosi va noqonuniy transplantatsiya amaliyotlari shaxsni buyum sifatida ishlatish, uning insoniy qadr-qimmatini pasaytirish bilan bog‘liq. Bu jinoyatlar ko‘pincha tashkil etilgan jinoyat tarmoqlarining qismi sifatida sodir etilib, ularda odam savdosi, korrupsiya, va jinoyat guruhlar ishtirok etadi.

Transplantatsiyaning qonun bilan o‘rnatilgan shartlari va tartibini buzish jamiyatda sog‘liqni saqlash tizimiga ishonchni zaiflashtiradi, tirik shaxsning uning tiriklik paytida yoki vafot etgan shaxsning yaqin qarindoshlarining roziligisiz a‘zosini yoki to‘qimasini olish shaxs huquqlarini buzadi va jiddiy axloqiy masalalarni keltirib chiqaradi.

Inson organlari yoki to‘qimalarining savdosi - bu kabi jinoyatning ijtimoiy xavfiligi juda yuqori bo‘lib, organ savdosi jarayoni odatda majburlash va aldov orqali amalga oshiriladi. Bu harakatlar nafaqat shaxslar orasidagi tenglik va adolat tamoyillarini buzadi, balki insonparvarlik prinsiplariga ham zid keladi.

Bundan tashqari, transplantatsiya qilinadigan inson a‘zolari yoki to‘qimalarining mamlakat hududidan olib chiqish davlatning sog‘liqni saqlash tizimi ustidan nazoratini susaytiradi va qonunga xilof yo‘llar bilan amalga oshiriladigan transplantatsiya amaliyotlarining oldini olishni qiyinlashtiradi. Bunday jinoyatlar noqonuniy global tibbiyot bozoriga xizmat qiladi, bu esa tibbiy va huquqiy me‘yorlarni buzilishiga olib keladi.

Shuningdek, mazkur jinoyatlar jamiyatning asosiy axloqiy qadriyatlariga tajovuz qilib, odamlarning tanasiga huquqiy himoya prinsiplarini kuchsizlantiradi. Shu sababli, ijtimoiy xavfsizlik va inson qadr-qimmatini ta‘minlashda ushbu moddalarning qattiq qo‘llanishi muhim hisoblanadi.

Ushbu jinoyatlar bo‘yicha xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligi bilan qiyosiy tahlil qilar ekanmiz, AQShda organ savdosi va noqonuniy transplantatsiya federal qonunlar va davlat darajasida qattiq nazorat ostida. "National Organ Transplant Act" (1984) [4] organ savdosini qat‘iyan taqiqlaydi va bunday jinoyat uchun jinoyat javobgarlik belgilaydi.

Buyuk Britaniyaning "Human Tissue Act" (2004) [5] hujjati organlar va to‘qimalarning noqonuniy olinishi va transplantatsiyasini tartibga soladi. Ushbu qonun organlarning sotilishiga va ruxsatsiz organ olishga qat‘iyan taqiq qo‘yadi. Bunday jinoyatlar uchun o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo‘llaniladi.

Germaniyada inson a‘zolari yoki to‘qimalarining savdosi "Transplantation Law" (1997) [6] orqali nazorat qilinadi, bu qonun har qanday tijoriy maqsadda organ savdosini qat‘iyan taqiqlaydi. Ushbu qonun bo‘yicha jinoyat sodir etgan shaxs 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Bu jinoyatlar davlat sog‘liqni saqlash tizimining ishonchligiga tajovuz qiladi va odatda korrupsiya bilan bog‘liq bo‘ladi.

Rossiya Federatsiyasining Jinoyat Kodeksi (RF JK) 120-moddasi organ va to'qimalarni noqonuniy olish bilan bog'liq jinoyatlarni o'z ichiga oladi [7].

Ushbu jinoyatlar uchun 3 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llaniladi. Agar jinoyat takroran yoki shaxsning xizmat mavqeyi bilan bog'liq holda sodir etilsa, jazo muddati oshiriladi. Bu jinoyatlar Rossiya qonunchiligida inson huquqlarini himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimining xavfsizligini ta'minlash uchun jiddiy xavf sifatida baholanadi.

Qozog'iston Respublikasining Jinoyat Kodeksi (QR JK) [8] 116-moddasi organ va to'qimalarning noqonuniy olinishi va transplantatsiyasi bilan bog'liq jinoyatlarni qamrab oladi. Agar jinoyat g'arazli maqsadlarda yoki shaxs tomonidan xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etilsa, og'irroq jazo chorasini nazarda tutadi.

Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston va MDH davlatlarining jinoyat qonunchiligi o'rtasida organ va to'qimalarni noqonuniy olish, sotish va respublika hududidan olib chiqish jinoyatlarida ayrim o'xshashliklar va farqlar mavjuddir. Ushbu jinoyatlar aksariyat MDH davlatlarida inson huquqlarini himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini qo'llab-quvvatlash nuqtai nazaridan yuqori darajada ijtimoiy xavfli deb hisoblanadi.

Yuqoridagi xorijiy mamlakatlarning Jinoyat to'g'risidagi qonunchilikka e'tibor qaratsak, insonni undan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash; inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini olish hamda transplantatsiya qilish shartlarini va (yoki) tartibini buzish; inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining oldi-sotdisi kabi jinoyatlar MDH davlatlari jinoyat kodeksida inson hayoti va sog'ligiga qarshi jinoyatlar hisoblanib, jinoyatlar shunga mos tegishli bobda joylashtirilgan, biroq ushbu qilmishlar O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining **axloqqa qarshi jinoyatlar** bobida keltirilgan (insonni undan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash jinoyatidan tashqari, mazkur jinoyat sog'liqqa qarshi jinoyatlar bobida mustahkamlangan). Sog'liqni saqlash va inson hayotiga ta'sir qiluvchi har qanday jinoyat, masalan, inson organlarni savdosi, mazkur organlarni yoki to'qimalarni malakatda olib chiqish, albatta sog'liqni xavf ostiga qo'yadi. Ushbu jinoyatlar, odatda, insonning jismoniy yoki ruhiy salomatligiga zarar yetkazishga, uning hayotini xavf ostiga qo'yishga olib keladi.

Shunday ekan, 133¹-modda. Inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining oldi-sotdisi hamda 133²-modda. Insonning transplantatsiya qilinadigan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish jinoyatlarini axloqqa qarshi jinoyat emas, balki sog'liqqa qarshi jinoyatlar sanashimiz maqsadga muvofiqdir. Ushbu fikrni quyidagicha asoslaymiz:

Ushbu jinoyatlar odamlarning organ va to'qimalariga jismoniy zarar yetkazish, shuningdek, organizmning jismoniy yaxlitligini buzishga olib keladi. Organ savdosi yoki noqonuniy transplantatsiya, odatda, jismoniy jarohatlar va tibbiy muammolarga sabab bo'ladi. Odamlarning organlari yoki to'qimalarini sotish yoki import qilish jarayonlari ko'pincha operatsiyalarni o'tkazishda xavf, infeksiyalar yoki boshqa salbiy tibbiy oqibatlar keltirib chiqaradi;

Inson organlarining savdosi va ularni noqonuniy ravishda olib chiqish, axloqiy jihatdan inson tanasini tijorat predmetiga aylantirish deb qaralishi mumkin, lekin bu harakatlar asosan sog'liqni xavf ostiga qo'yish, ya'ni jismoniy va tibbiy zarar yetkazishga olib keladi;

Ushbu jinoyatlar jamiyatda salomatlikka bo'lgan yondashuvni buzadi va insonning sog'lig'ini himoya qilishning qonuniy tartiblariga zarar yetkazadi. Shuning uchun, bu jinoyatlar asosan sog'liqni buzish va hayotga tahdid solish bilan bog'liq bo'lib, sog'liqni saqlashning etikal nuqtai nazaridan jinoyat sifatida baholanishi kerak.

Xulosa:

Inson a'zolari va to'qimalarining noqonuniy olinishi, transplantatsiya qilinishi va ularni savdosi, nafaqat odamlarning jismoniy salomatligiga, balki ularning huquqiy va axloqiy qadriyatlariga ham jiddiy tahdid soladi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksidagi 133¹-modda va 133²-modda kabi normativ-huquqiy aktlar, aynan sog'liqni xavf ostiga qo'yuvchi harakatlarni jazolashga qaratilgan.

Ushbu jinoyatlar, insonning jismoniy yaxlitligini buzish, sogʻligʻiga zarar yetkazish va unga tibbiy yordamsiz zararli operatsiyalarni amalga oshirish bilan bogʻliq boʻlib, ijtimoiy xavfi yuqori boʻlgan jinoyatlar sifatida baholanishi kerak.

Qiyosiy tahlilning natijalariga koʻra, Oʻzbekiston va xorijiy davlatlar, shu jumladan AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Rossiya Federatsiyasining jinoyat qonunchiligida organ va toʻqimalar savdosi, transplantatsiya va ularni noqonuniy ravishda olib chiqishga qarshi qatʼiy chora-tadbirlar mavjud.

Oʻzbekistonning yangi qonunlari va jinoyat kodeksidagi oʻzgarishlar, sogʻliqni saqlash tizimi va inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Biroq, Oʻzbekistonning huquqiy tizimida bu jinoyatlar axloqqa qarshi jinoyatlar sifatida koʻrsatilgan boʻlsa-da, ular asosan sogʻliqni xavf ostiga qoʻyuvchi jinoyatlar sifatida koʻrilishi kerak. Chunki, organlar savdosi va noqonuniy transplantatsiya jarayonlari nafaqat axloqiy masalalarga, balki sogʻliq va hayot xavfiga tahdid soladi.

Shu sababli, mazkur jinoyatlarni sogʻliqni saqlash va inson hayotini himoya qilishga doir normativ-huquqiy doirada baholash muhim ahamiyatga ega. Bu kabi jinoyatlar, faqat sogʻliqni buzish, jismoniy va tibbiy zarar yetkazish bilan bogʻliq boʻlib, xalqaro amaliyotda sogʻliqni saqlashga doir jinoyatlar sifatida tan olinishi kerak. Bu, oʻz navbatida, jamiyatda inson qadr-qimmatini va hayotini himoya qilishni taʼminlash uchun zaruriy huquqiy chora-tadbirlarni kuchaytirishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.06.2022 yildagi O‘RQ-780-son. <https://lex.uz/docs/-6079256>
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111453>
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 11.05.2022 yildagi O‘RQ-768-son. <https://lex.uz/docs/-6001286>
4. "National Organ Transplant Act" (1984). <https://www.congress.gov/bill/98th-congress/senate-bill/2048>
5. "Human Tissue Act" (2004). https://www.sth.nhs.uk/clientfiles/File/dh_4103686.pdf
6. "Transplantation Law" (1997). <https://gewebenetzwerk.de/en/gesetzliche-grundlagen/>
7. "Уголовный кодекс Российской Федерации" от 13.06.1996 N 63-ФЗ (ред. от 09.11.2024). https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/
8. Уголовный кодекс Республики Казахстан. Кодекс Республики Казахстан от 3 июля 2014 года № 226-V ЗРК. <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000226>